TIBBIY TERMINOLOGIYANI O‘QITISHDA TILLARARO INTEGRATSIYANING AHAMIYATI

Radjabov Nasir Nasimovich,
Oriental universiteti
Tillar-2 kafedrasi professori
Filologiya fanlari doktori

Annotatsiya. Mazkur maqolada tibbiy terminologiyani o‘qitishda tillararo integratsiya yondashuvining nazariy va amaliy ahamiyati yoritilgan. Zamonaviy tibbiy ta’limda lotin, ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi terminlarni qiyosiy-integrativ asosda o‘rgatish talabalarda terminologik tafakkur, kasbiy kommunikativ kompetensiya hamda kognitiv barqaror bilimni shakllantirishi ilmiy jihatdan asoslangan. Maqolada terminlarning morfologik tuzilishi, semantik yadrosi va klinik qo‘llanilishi misollar orqali tahlil qilingan. Integratsion yondashuv terminlarni mexanik yodlashdan konseptual anglash bosqichiga olib chiqishi ko‘rsatib beriladi.

Kalit so‘zlar: *tibbiy terminologiya, tillararo integratsiya, lotin tili, ingliz tili, rus tili, o‘zbek tili, integrativ metod, terminologik kompetensiya, tibbiy ta’lim, kasbiy kommunikatsiya.*

Kirish. Tibbiyot sohasi bugungi kunda xalqaro ilmiy hamkorlikning eng faol yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Tibbiy bilimlarning jadal rivojlanishi mutaxassislardan turli tillarda yaratilgan ilmiy axborotni tez va aniq qabul qilishni talab etmoqda. Shu sababli tibbiyot mutaxassisini tayyorlash jarayonida terminologik savodxonlik alohida ahamiyat kasb etadi.

Tibbiy terminlarning asosiy qatlami lotin va yunon tillariga borib taqaladi. Hozirgi davrda ingliz tili global ilmiy muloqot vositasi sifatida yetakchi o‘rin egallagan bo‘lsa, rus tili MDH hududidagi klinik amaliyot va adabiyotlarda keng qo‘llanadi. O‘zbek tili esa milliy sog‘liqni saqlash tizimida professional muloqotning asosiy vositasi hisoblanadi.

Amaliy tajriba shuni ko‘rsatadiki, terminlarni faqat tarjima qilish yoki yodlash orqali o‘qitish talabalar tomonidan barqaror o‘zlashtirilmaydi. Terminlar tizimli bilim sifatida emas, balki alohida birliklar sifatida qabul qilinadi. Shu bois zamonaviy metodikada *tillararo integratsiya* yondashuvi muhim pedagogik yechim sifatida qaralmoqda.

Asosiy qism: *1. Tibbiy terminologiyaning tizimli xususiyati.* Tibbiy terminologiyaning eng muhim xususiyatlaridan biri uning *tizimlilik* tamoyiliga asoslanganligidir. Ya’ni tibbiy terminologiya oddiy lug‘at boyligi yoki tasodifiy yig‘ilgan so‘zlar majmuyi emas, balki qat’iy ilmiy qonuniyatlar asosida shakllangan maxsus terminologik tizim hisoblanadi. Bu tizimda har bir termin muayyan tushunchani aniq, bir ma’noli va universal tarzda ifodalash vazifasini bajaradi. Tibbiyot fanining xalqaro xarakterga ega ekanligi sababli terminlar turli tillarda ishlatilsa ham, ularning semantik yadrosi yagona ilmiy manbaga tayanadi. Terminlarning katta qismi morfemalardan – ildiz, prefiks va suffikslardan tashkil topgan bo‘lib, aynan shu morfemik tuzilish terminlarning tizimli ravishda o‘zaro bog‘lanishini ta’minlaydi. Masalan, *cardio-* (yurak), *neuro-* (asab), *nephro-* (buyrak) kabi elementlar yuzlab yangi terminlarni hosil qilish imkonini beradi va bu tibbiy leksikaning mahsuldorligini oshiradi.

Tibbiy terminologik tizimning tarixiy va struktur asosini *lotin tili* tashkil etadi. O‘rta asrlardan boshlab lotin tili Yevropa ilm-fanining universal tili bo‘lib xizmat qilgan va anatomiya, farmakologiya hamda klinik tibbiyot terminlari aynan shu til asosida standartlashgan. Shu sababli bugungi kunda ham ko‘plab anatomik nomlar lotin tilida saqlanib qolgan. Masalan, *cor* termini ingliz tilida *heart*, rus tilida *сердце*, o‘zbek tilida *yurak* shaklida ifodalanadi; *cerebrum – brain – мозг – miya*; *ren – kidney – почка – buyrak*. Bu yerda lotincha birlik konseptual markaz vazifasini bajaradi, ya’ni ilmiy tushuncha avvalo lotin terminida mujassamlashadi, boshqa tillardagi variantlar esa shu tushunchaning kommunikativ, milliy tilga moslashtirilgan realizatsiyasi hisoblanadi.

Bunday tizimlilik tibbiy ta’lim jarayonida ayniqsa muhim ahamiyat kasb etadi. Talaba terminning faqat tarjimasini emas, balki uning lotincha ildizi va morfemik tuzilishini tushunsa,

u yangi terminlarni yodlashga majbur bo‘lmaydi, balki ularni mantiqan anglab, ma’nosini mustaqil ravishda aniqlay oladi. Masalan, *cardiology*, *cardiovascular*, *pericardium* kabi terminlarning barchasi *cor/card-* ildizi bilan bog‘liqligini anglash o‘rganish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. Natijada tibbiy terminologiya til tizimining alohida, ichki qonuniyatlarga ega bo‘lgan ilmiy modeli sifatida namoyon bo‘ladi va bu model xalqaro ilmiy kommunikatsiyaning barqarorligini ta’minlaydi.

2. Tillararo integratsiya metodining mohiyati. Tillararo integratsiya metodining mohiyati shundan iboratki, termin alohida bir til doirasida emas, balki bir vaqtning o‘zida bir nechta til tizimlari kesimida o‘rganiladi. Bunda terminning shakli, ma’nosi va ilmiy tushunchasi turli tillarda taqqoslab tahlil qilinadi va natijada uning umumiy semantik hamda kognitiv modeli shakllanadi. Ya’ni talaba terminni oddiy tarjima birlik sifatida emas, balki turli lingvistik tizimlarda bir xil ilmiy tushunchani ifodalovchi universal birlik sifatida anglaydi. Ushbu yondashuv konstruktiv ta’lim nazariyasiga asoslanadi, ya’ni bilim tayyor holda berilmaydi, balki o‘quvchining o‘zi tomonidan faol ravishda quriladi. Talaba til birliklarini solishtirish, umumlashtirish va mantiqiy bog‘lash orqali yangi bilimni mustaqil ravishda hosil qiladi.

Masalan, *cardiology* termini integratsion tahlil asosida o‘rganilganda uning kelib chiqishi lotin-yunon morfemalariga borib taqalishi aniqlanadi: *cardio* – “yurak”, *logia* – “fan”, “ta’limot”, “o‘rganish” ma’nolarini bildiradi. Ushbu morfemalar ingliz tilida *cardiology*, rus tilida *кардиология*, o‘zbek tilida *kardiologiya* shaklida qo‘llanadi. Shunday qilib, turli tillardagi fonetik yoki grafik farqlarga qaramay, terminning semantik yadrosi o‘zgarmas holda saqlanadi. Talaba aynan shu umumiy yadroni anglaganidan so‘ng terminni yodlab olishga ehtiyoj kamayadi, chunki u terminning ichki tuzilishini tushunadi.

Ko‘rinadiki, tillararo integratsiya metodining eng muhim pedagogik natijasi – *terminologik tafakkurning shakllanishi* hisoblanadi. Talaba *cardio* komponenti yurak bilan bog‘liq ekanini anglagach, *neurology*, *dermatology*, *oncology*, *biology*, *psychology* kabi ko‘plab terminlarning ma’nosini mustaqil ravishda tushuna boshlaydi. Bu esa terminlarni mexanik yodlashdan analitik va kognitiv o‘zlashtirishga o‘tishni ta’minlaydi. Shu sababli tillararo integratsiya tibbiy va ilmiy terminologiyani o‘qitishda samarali metod bo‘lib, u nafaqat til kompetensiyasini, balki mantiqiy fikrlash, konseptual tahlil va fanlararo bog‘liqlikni anglash ko‘nikmalarini ham rivojlantiradi.

Morfemik qiyoslashning didaktik samarasi shundan iboratki, u terminlarni alohida, mustaqil so‘z sifatida emas, balki tarkibiy qismlardan tashkil topgan tizimli birlik sifatida o‘rganishga imkon beradi. Integratsion o‘qitish jarayonida terminning ichki tuzilishi – ildiz morfema va affikslar ajratib tahlil qilinadi hamda turli tillardagi shakllari o‘zaro qiyoslanadi. Natijada, talaba terminni yodlab olishdan ko‘ra uning qanday tuzilganini, qanday ma’no elementlaridan tashkil topganini anglaydi. Bu jarayon umumlashtirish, analogiya qilish va lingvistik mantiq asosida fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantiradi. Ya’ni o‘quvchi har bir yangi terminni yangi birlik sifatida emas, balki avval o‘zlashtirilgan modelning davomchisi sifatida qabul qiladi.

Masalan, *gastritis* termini lotin tilida *gastritis*, ingliz tilida *gastritis* /gæsˈtraɪ.tɪs/, rus tilida *гастрит*, o‘zbek tilida *gastrit* shaklida uchraydi. Mazkur termin morfemik tahliliga ko‘ra ikki asosiy semantik komponentdan tashkil topgan: *gaster* – “oshqozon”, *-itis* – “yallig‘lanish” ma’nosini bildiruvchi tibbiy suffiks. Demak, terminning umumiy ma’nosi “oshqozon yallig‘lanishi” ekanligi morfemalarning o‘zidan kelib chiqib tushuniladi. Talaba aynan shu modelni anglaganidan so‘ng boshqa ko‘plab klinik terminlarni ham intuitiv ravishda tahlil qila boshlaydi.

Masalan, *bronchitis* /brɒŋˈkaɪ.tɪs/ – bronx yallig‘lanishi, *arthritis* /ɑːˈθraɪ.tɪs/ – bo‘g‘im yallig‘lanishi, *hepatitis* /ˌhep.əˈtaɪ.tɪs/ – jigar yallig‘lanishi kabi terminlarning ma’nosi yangi ma’lumot sifatida emas, balki tanish morfemik model asosida anglanadi. Shu tariqa *-itis* suffiksi kasalliklarning yallig‘lanish xarakterini bildiruvchi umumiy semantik indikatorga aylanadi.

Bunday yondashuvning asosiy didaktik afzalligi shundaki, u mexanik yodlashga bo‘lgan ehtiyojni sezilarli darajada kamaytiradi, terminologik kompetensiyani esa tizimli va ongli ravishda shakllantiradi. Morfemik qiyoslash natijasida talaba terminlarni passiv eslab qoluvchi emas, balki ularni tahlil qiluvchi va mustaqil ravishda tushuna oluvchi faol subyektga aylanadi.

Klinik kommunikatsiyada ko‘p tillilikning ahamiyati zamonaviy tibbiyot amaliyotining global xarakteri bilan bevosita bog‘liqdir. Hozirgi shifokor faoliyati bir vaqtning o‘zida bir nechta lingvistik makonda amalga oshiriladi: ilmiy yangiliklar va tadqiqot natijalari, asosan, ingliz tilida e’lon qilinadi, klinik tavsiyalar va metodik qo‘llanmalar ko‘pincha rus tilida mavjud bo‘ladi, bemor bilan kundalik muloqot esa milliy til – o‘zbek tilida olib boriladi. Shu sababli shifokor nafaqat tibbiy bilimga, balki terminlarni turli tillarda tez anglay olish va ularni vaziyatga mos ravishda qo‘llash kompetensiyasiga ham ega bo‘lishi zarur. Ko‘p tillilik klinik qaror qabul qilish jarayonida axborotni tez qabul qilish, to‘g‘ri interpretatsiya qilish va bemorga tushunarli shaklda yetkazish imkonini beradi.

Masalan, *hypertension* /ˌhaɪ.pəˈten.ʃən/ termini lotincha-yunoncha asosga ega bo‘lib, *hyper* – “ortiqcha, yuqori”, *tensio* – “bosim, taranglik” ma’nolarini bildiradi. Ushbu termin ingliz tilida *hypertension*, rus tilida *гипертония*, o‘zbek tilida *gipertoniya* shaklida ishlatiladi. Turli tillardagi fonetik farqlarga qaramay, terminning konseptual mazmuni yagona bo‘lib qoladi. Agar talaba *hyper-* prefiksining “me’yordan yuqori” degan umumiy semantik ma’nosini tushunsa, u faqat bitta terminni emas, balki butun terminologik modelni o‘zlashtirgan bo‘ladi. Natijada, *hyperglycemia* /ˌhaɪ.pəˑ.glaɪˈsiː.mi.ə/ (qonda glyukoza miqdorining oshishi), *hyperthermia* /ˌhaɪ.pəˈθɜː.mi.ə/ (tana haroratining oshishi), *hyperplasia* /ˌhaɪ.pəˈpleɪ.ʒə/ (to‘qima hujayralarining ortiqcha ko‘payishi) kabi terminlar ham avtomatik tarzda tushunarli bo‘lib qoladi.

Bunday yondashuv professional fikrlashni avtomatlashtirishga xizmat qiladi. Shifokor har bir terminni alohida tarjima qilishga vaqt sarflamaydi, balki morfemik va semantik belgilar asosida tezda ma’noni aniqlaydi. Natijada, klinik kommunikatsiya samaradorligi oshadi, xalqaro ilmiy axborot bilan ishlash osonlashadi va bemor bilan muloqotda murakkab tibbiy tushunchalarni sodda hamda aniq ifodalash imkoniyati paydo bo‘ladi. Demak, ko‘p tillilik zamonaviy tibbiy kompetensiyaning ajralmas qismi bo‘lib, u lingvistik moslashuvchanlik, analitik tafakkur va professional kommunikativ madaniyatni shakllantiradi.

Yuqoridagi fikrlardan anhlashiladiki, quyidagilar tillararo integratsiyaning pedagogik ustunliklari sifatida baholanadi:

- terminologik tafakkur shakllanadi;
- uzoq muddatli xotira faollashadi;
- fanlararo bog‘lanish kuchayadi;
- tarjima xatolari kamayadi;
- klinik tafakkur rivojlanadi.

Demak, tillararo integratsiya pedagogik ustunlik sifatida terminologiyani o‘rganish jarayonini oddiy tarjima yoki yodlash darajasidan chiqarib, chuqur kognitiv va kasbiy tafakkur shakllanishiga olib keladi. Integrativ metodda terminlar bir nechta til tizimlari doirasida taqqoslab o‘rganiladi, natijada talaba so‘zning faqat tashqi shaklini emas, balki uning ilmiy mazmuni, semantik chegaralari va qo‘llanish kontekstini anglaydi. Bunday yondashuv eng avvalo terminologik tafakkurni rivojlantiradi, ya’ni talaba terminlarni alohida birliklar sifatida emas, balki o‘zaro bog‘langan ilmiy tushunchalar tizimi sifatida qabul qila boshlaydi.

Integrativ o‘qitish uzoq muddatli xotiraning faollashishiga ham xizmat qiladi. Chunki bir termin bir vaqtning o‘zida bir nechta til, morfema va semantik model orqali o‘zlashtiriladi. Ko‘ptomomlama idrok (taqqoslash, tahlil qilish, umumlashtirish) natijasida bilim mustahkamroq saqlanadi va tez esga tushadi. Shu bilan birga fanlararo bog‘lanish ham kuchayadi: tilshunoslik, tibbiyot, terminologiya va kommunikatsiya ko‘nikmalari yagona ta’lim

jarayoniga integratsiyalashadi. Bu esa bo‘lajak shifokorning ilmiy matnni o‘qish, klinik ma’lumotni tushunish va bemorga izohlash jarayonlarini bir-biri bilan uzviy bog‘laydi.

Integrativ metodning yana bir muhim afzalligi – tarjima xatolarining kamayishidir. Tibbiy terminlar turli tillarda ba’zan semantik jihatdan to‘liq mos kelmasligi mumkin. Masalan, ingliz tilidagi *intoxication* /ɪnˌtɒk.sɪˈkeɪ.ʃən/ termini umumiy ma’noda “zaharlanish”ni bildiradi, biroq rus tilida *интоксикация* tibbiy zaharlanish bilan bir qatorda ayrim kontekstlarda alkogol ta’siri yoki mastlik holatini ham anglatishi mumkin. Agar mutaxassis terminni faqat yuzaki tarjima asosida tushunsa, klinik ma’lumotni noto‘g‘ri talqin qilish xavfi paydo bo‘ladi. Tillararo integratsion tahlil esa terminning turli tillardagi semantik chegaralarini aniqlashga yordam beradi, natijada kasbiy kommunikatsiyada aniqlik ortadi va diagnostik hamda davolash jarayonida yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xatolar kamayadi.

Shu tariqa integrativ yondashuv nafaqat lingvistik kompetensiyani, balki klinik tafakkurni ham rivojlantiradi. Shifokor termin ortida turgan konseptni tez anglaydi, turli manbalardan olingan axborotni to‘g‘ri solishtira oladi va professional qaror qabul qilish jarayonida aniq, mantiqiy hamda ilmiy asoslangan fikrlashga erishadi. Demak, tillararo integratsiya zamonaviy tibbiy ta’limning samarali pedagogik modeli sifatida kasbiy kompetensiyani kompleks ravishda shakllantiradi.

Tibbiy terminlarni tillararo integratsion o‘qitishda quyidagi metodik model samarali hisoblanadi:

1 Lotin terminini kiritish
2 Morfemik tahlil
3 Ingliz varianti
4 Rus ekvivalenti
5 O‘zbek klinik izohi
6 Amaliy vaziyatda qo‘llash

Integratsion o‘qitish modeli tibbiy terminlarni o‘zlashtirish jarayonini tizimli va ko‘p bosqichli yondashuv asosida tashkil etishni nazarda tutadi. Bu modelning asosiy maqsadi – terminni oddiy til birligi sifatida emas, balki chuqur ilmiy va kasbiy mazmunga ega bo‘lgan konsept sifatida shakllantirishdir. O‘qitish jarayoni bir necha izchil bosqichlardan iborat bo‘lib, har bir bosqich terminni turli lingvistik va kognitiv nuqtayi nazardan yoritishga xizmat qiladi.

Birinchi bosqichda lotin termini kiritiladi, chunki yuqorida ta’kidlanganidek, lotin tili tibbiy terminologiyaning tarixiy va universal asosi hisoblanadi. Keyingi bosqichda morfemik tahlil amalga oshiriladi, ya’ni termin tarkibiy qismlarga ajratilib, har bir morfemaning ma’nosi aniqlanadi. Bu bosqich talabaning termin ichki tuzilishini tushunishiga yordam beradi. Uchinchi bosqichda terminning ingliz tilidagi varianti ko‘rib chiqiladi, chunki zamonaviy ilmiy kommunikatsiyaning asosiy qismi aynan ingliz tilida yuritiladi. To‘rtinchi bosqichda rus tilidagi ekvivalenti o‘rganiladi, bu esa mintaqaviy klinik adabiyotlar va amaliy qo‘llanmalar bilan ishlash imkonini beradi. Beshinchi bosqichda o‘zbek tilidagi klinik izoh beriladi, bu esa terminni milliy tibbiy muhitga moslashtirib, bemor bilan muloqotda to‘g‘ri qo‘llashni ta’minlaydi. Yakuniy bosqichda esa termin amaliy vaziyatlarda qo‘llanadi, ya’ni klinik holatlar, kasallik tavsiflari yoki diagnostik misollar orqali mustahkamlanadi.

Bunday ketma-ket va integratsion yondashuv natijasida termin oddiy lingvistik birlikdan asta-sekin *kasbiy konsept* darajasiga ko‘tariladi. Talaba uni faqat tarjima qilmaydi, balki uning tuzilishi, ma’nosi va klinik qo‘llanishini chuqur anglaydi. Shu tariqa integratsion o‘qitish modeli tibbiy terminologiyani o‘zlashtirishni yanada ongli, tizimli va amaliy jihatdan samarali jarayonga aylantiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, tibbiy terminologiyani o‘qitishda tillararo integratsiya metodini qo‘llash zamonaviy tibbiy pedagogikasida samarali natija beradi. Lotin, ingliz, rus va o‘zbek tillaridagi terminlarni qiyosiy asosda o‘rganish talabalarda tizimli terminologik bilim, mustaqil tahlil qilish qobiliyati va ko‘p tilli professional kommunikatsiya kompetensiyasini

shakllantiradi. Integratsion yondashuv terminlarni yodlashga asoslangan an’anaviy metoddan farqli ravishda ularning semantik mohiyatini ochib beradi, bilimni barqarorlashtiradi va bo‘lajak shifokorining ilmiy hamda amaliy faoliyatiga mustahkam poydevor yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1 Wulff H.R. *The Language of Medicine*. Oxford: Blackwell Publishing, 2004.
2 Richards J.C., Rodgers T.S. *Approaches and Methods in Language Teaching*. Cambridge University Press, 2014.
3 Trimble L. *English for Science and Technology*. Cambridge University Press, 2011.
4 Nomina Anatomica. International Anatomical Nomenclature Committee. Stuttgart: Thieme, 2019.
5 Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. Москва: URSS, 2016.
6 Madvaliyev A. Tibbiy terminologiya asoslari. Toshkent, 2020.